

O‘ZBEK TILIDA QO‘SHMA GAP STRUKTURALARI

Abdullayeva Oqila Xolmo‘minovna,
Filologiya fanlari falsafa doktori, (DSc)
abdullayeva.oqila@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU
O‘tkirova Fotima Baxtiyorovna,
magistranti
otkirovafotima456@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi qo‘shma gaplarning struktur modellarini tizimli ravishda o‘rganish masalasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda qo‘shma gaplar uch asosiy turga – ergashgan, bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarga ajratilib, har bir tur uchun formal-struktur modellar ishlab chiqilgan. Modellar sintaktik komponentlarning (ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol) kombinatsiyasi asosida jadval ko‘rinishida ifodalangan. Ushbu yondashuv qo‘shma gaplarning formal-funksional xususiyatlarini aniqlash bilan birga, ularni kompyuter lingvistikasi doirasida avtomatik tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: *qo‘shma gap, struktur model, sintaksis, formal-funksional tahlil, dependency parsing, korpus lingvistikasi, mashinaviy tarjima.*

Abstract. This article investigates the systematic modeling of compound sentence structures in the Uzbek language. The study classifies compound sentences into three main types: subordinate, coordinate, and asyndetic constructions, and develops formal-structural models for each category. The models are represented in tabular form based on combinations of syntactic components such as subject, predicate, attribute, object, and adverbial modifier. This approach not only reveals the formal-functional characteristics of compound sentences but also enhances the possibilities for their automatic analysis within computational linguistics.

Keywords: *compound sentence, structural model, syntax, formal-functional analysis, dependency parsing, corpus linguistics, machine translation.*

O'zbek tilida qo'shma gaplarni modellashtirish masalalariga qaratilgan bir qancha qarashlar mavjud bo'lsa-da, tadqiqotlar kamligi ushbu masalada hali bahslarning davom etib kelayotganini anglatadi. Xususan, R.Sayfullayeva tomonidan qo'shma gaplar sintaktik va paradigmatic planda o'rganilgan[1]. Tadqiqot ishida qo'shma gaplarni an'anaviy tasnifdan farqli o'laroq, ularning tuzilish shakli va gapdagi funksional vazifasi birligida tahlil qilgan. Bunday kompleks tahlil orqali olimlar o'zbek tili sintaksisining nozik jihatlarini yoritib bergan. Ilmiy ishning yangiligi shundan iboratki, u tilshunoslikda yangi – formal-funksional yo'nalishning shakllanishi va rivojiga imkoniyat yaratib beradi. Shuningdek, gap, qo'shma gap haqidagi turli fikrlarni bitta yaxlit sistemaga birlashtiradi. Qo'shma gap xususidagi turli ziddiyatli masalalarning hal etilishiga yordam beradi. Shunday tadqiqotlardan yana biri B.N.Turniyozov tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning ilmiy ishida qo'shma gaplarga nisbatan Murakkab sintaktik qurilma tushunchasi qo'llaniladi[2]. Tadqiqot ishida qo'shma gap terminining mohiyati tavsifini berish va mazkur tushunchaning til birliklari iyerarxik munosabati qonuniyatiga aloqasi darajasini o'rganish, bog'lovchili va bog'lovchisiz qo'shma gaplarni teng komponentli murakkab sintaktik qurilma sifatida talqin etish o'zbek yozuvchilari asarlaridagi gaplar orqali yoritib berilgan.

Yuqoridagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida biz ham qo'shma gaplarning struktur modellarini tizimli ravishda o'rganib chiqdik. Ular uch asosiy turga ajratildi:

1. Ergashgan qo'shma gaplar;
2. Bog'langan qo'shma gaplar;
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Har bir tur uchun 20 tadan model tuzilib, gaplar tarkibiy qismlarining formal-struktur belgilariga ko'ra jadval ko'rinishida shakllantirildi. Modellarda sintaktik komponentlar E – ega, K – kesim, A – aniqlovchi, T – to'ldiruvchi, H – hol tarzida belgilandi. Uyushiq bo'laklar tartib raqami bilan tegishli gap bo'lagi yoniga

belgilandi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar E.b, teng bog'lovchilar T.b shaklida kiritildi. Qo'shma gaplarni ajratib olish uchun “/” belgisidan foydalanildi. Bu yondashuv qo'shma gaplarning keyinchalik kompyuter lingvistikasi doirasida avtomatik tahlil qilish imkonini beradi.

Ergashgan qo'shma gap modellari. Bunday gaplar tarkibida asosiy va ergash gap o'rtasidagi tobelik munosabati kuzatiladi. Bular sabab, shart, payt, natija munosabatlarini ifodalovchi konstruksiyalar hisoblanadi.

1-jadval. Ergashgan qo'shma gap modellari

A+A+T+H+K /A+T+E+K	Insoniyatning tarixiy rivojlanishidan to'g'ri xulosa chiqarilsa, ko'plab xatolardan qochish mumkin.
K /A+T+H+K	Gapira olmasangiz, qiyin joylarini qayta o'qing.
E+K /A+H1=A+H2+A+E+K	Qush uchsa, qanoti kuyadigan sahro, poyonsiz cho'llarda issiq shamol esib turgan.
H+E+T+K/ E+T+K	Shu tarzda tabiat nimani in'om etsa, odam shuni olgan.
E+K/E+T+K	Sher yaqinlashib qolgan bo'lsa ham, hech kim qochishni o'ylamasdi.
A+E+A+T+K/ E.b+E+A+A+H+K	Bu jarayon ko'p mehnat talab qilgan, negaki temir misdan ko'ra ancha yuqori haroratda (1500C) eriydi.
A+E+A+T+T+K/K.q+H+E+A+A +T+ H+K	Eng qadimgi odamlar dastlabki mehnat qurollarini toshlardan yasashgan, shunga ko'ra arxeologlar insoniyat tarixining boshlanishini “tosh davri” deb atashadi.
E+A+H+K/K.q+T+A+T+K	Tosh davri ancha uzoq vaqt davom etgan, shuning uchun uni quyidagi bosqichlarga ajratishadi.
E+T+H+K/E.b+E+T+A+T+T+K	Olimlar uni “ishbilarmon odam” deb atashgan, negaki u toshdan o'ta sodda mehnat qurollari yasashni bilgan.
E+T+K/H+K	Odamlar suyak tashlasa, pisib kelib olib qochadi.
T+H+E+K/E.b+E+A+T+K	Chesnokni har kuni iste'mol qilish tavsiya etilmaydi, chunki u yurakdagi muammolarga olib kelishi mumkin.

A+H+A+E+K/K.q+H+A+H+K	Yomg'irli havoda tabiiy yorug'lik kam bo'ladi, shuning uchun yaxshi yoritilgan xonada vaqt o'tkazing.
A1+A2+A+T+K/E.b+A+T+T+T+E+K	Hasadgo'y, botil ahllarining tanqidlariga parvo qilma, chunki ularning so'zlariga sabr qilishda senga ajr mukofot bor.
T+A+E+K/E.b+E+T+K	Senda eng katta ne'mat bor, chunki sen tavhid kalimasini aytganlardansan.
K/E.b+E+T+K	Yo'l ber, garchi u yo'l berishga munosib bo'lmasa ham.
H+T+A+T+K/E.b+E+A+T+K	Hech qachon boshqalarni baxtli qilgan lahzang uchun nadomat chekma, garchi o'shalar bu yaxshiliginga arzimasalarda.
E+K/E.b+T+K+E	O'g'il xursand edi, chunki otasini xursand qilgan edi u.
T+K/T+A+T+K	Pushaymonlik tuysang, shunga olib kelgan ishni tark et.
E+N.s+H+H+K/E+N.s+H+K	Siz qanchalik muloyim va sokin bo'lsangiz, bolangiz ham shunchalik osuda bo'lib o'sadi.
E.b+E+T+K/H+T+K	Agar siz qo'rqinchni yengmoqchi bo'lsangiz, uyda o'tirib bu haqda o'ylash kerak emas.

Modellar shuni ko'rsatadiki, ergash gap kesimi, odatda, fe'l bilan ifodalanib, asosiy gap kesimiga semantik jihatdan bog'lanadi. Bunday gaplar o'zbek tilidagi tobelik munosabatlarini algoritmik ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bog'langan qo'shma gaplarning har ikki qismi o'zaro teng sintaktik munosabatda bo'ladi. Struktur modellashtirishda ular mustaqil predikativ birlik sifatida belgilandi, negaki ular semantik jihatdan parallel yoki qarama-qarshi munosabatda bo'lgani kuzatildi.

2-jadval. Bog'langan qo'shma gap modellari

E+H+K/T.b+E+K	Er-xotin ikkimiz tinimsiz ishlaymiz, lekin hech birimiz ikki bo'lmaydi.
A+A+T+A+A+A+E+H+K/T.b+E+T+K	Oftobning dastlabki yog'dularida hashamatli binolarning moviy gumbazlari jilvalanib ko'rinadi va gumbazlar osmon bilan singishib ketgandek bo'ladi.
H+H+A1+T+A2+H+A+E+H+T+K/	Ancha keyinroq, mehnat qurollari va xo'jalik yuritish shakllari takomillashgani sayin

E+B+T+H+A+T+K	jamoadagi yetakchilik mavqeyi asta-sekin erkak kishiga o'ta boshlagan, bu esa urug'ga endi erkak kishi boshchilik qilishini anglatardi.
E+A+K/T.b+H+K	To'ti ko'p gapiradi, lekin baland ucha olmaydi.
E+K/T.b+E+K	Mol-dunyoyimiz ortdi, ammo huzur-halovatimiz yo'qoldi.
E.b+E+H+K/T.b+H+A+E+K	Chunki eng yaxshisi har doim ham sizniki bo'lavermaydi, ammo har doim o'zingizdagi bori yaxshiroq bo'ladi.
E+H+K/T.b+E+T+H+H+K	Chol ortda qolib ketdi, biroq boshqalar uni kutmasdan yo'lda davom etishdi.
E+A+H+H+T+K/T.b+H+K	U begona joylarda yolg'iz qolajagini tushundi va alam bilan ingradi.
E+T+H+K/T.b+E+A+T+H+K	Odamlar tabiatni jonli deb hisoblashgan va tabiat inson xususiyatlari bilan bog'liq holda talqin qilingan.
A+A+E+T+K/T.b+E+A+A+A+T+H+K	Temir qurollarning tarqalishi mehnat samaradorligini oshirdi va bu ishlab chiqarishning yana-da ilg'or usuliga o'tish uchun sharoit hozirladi.
E+K/T.b+H+K	U kasal edi va zo'rg'a qadam bosardi.
E+T1+T2+T3+K/A+T+B+T+K	Misrliklar bug'doy va arpa, poliz ekinlarini ekishgan, yetishtirilgan kanopdan esa gazlama to'qishgan.
E+T+T+K/E+B+T+K	To'quvchilar kiyim-kechak uchun materiallar tayyorlar, tikuvchilar esa liboslar tikardi.
E+A+K/T+A+T+A+E+K	Ma'bud shunchalik qudratliki, uni asl qiyofasida ko'rishning iloji yo'q.
E+A+H+K+K/A+A+E+H+K	Toshlar shunchalik tekis qilib kesilgan va taroshlanganki, ular o'rtasidagi yoriq 0,5 millimetrdan oshmaydi.
A+E+T1+T2+A+T+K/ E+T+K1+A+T+H+T+K2	Daxmalar ichi esa munojotlar, qarg'ishlardan iborat bitiklar bilan qoplangan, ular fir'avnni himoya qilishi va o'zga hayotga o'tayotganida unga yordam berishi kerak bo'lgan.
H+A+E+A+T1+T.b+T2+H+K/ T.b+T+H+K	Quyi Misrni bosib olgan giksoslar misrliklar shaharlari va qishloqlarini ayovsiz taladi va odamlarni asirlikka haydab ketdi.

E+A+T+K/T.b+E+K	Qarindoshchilik erkak nomi bilan belgilanadigan bo'ldi va patriarxat davri boshlandi.
A+H+E+H+K/T.b+T+K	Odamlar ovozi tingach, kuchuk g'orga yaqinlashadi va bir suyakni g'ajiy boshlaydi.
E+H+K/T.b+T+H+K	Bola bu xolatda eshitadi, lekin gaplarni umuman tushunmaydi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar komponentlari o'zaro ohang va mazmun orqali bog'lanadi. Bunday gaplarda bog'lovchi vosita ishtirok etmaydi, lekin semantik aloqadorlik saqlanadi. Ular, ko'pincha, sabab-natija, izoh yoki ketma-ketlik munosabatlarini ifodalaydi.

3-jadval. Bog'lovchisiz qo'shma gap modellari

A+E1+A+E2+H+T+K/T+A+T+T+K	Ajdodlarimizning jasorati va amalga oshirgan buyuk ishlari qalblarda vatanparvarlik hissini uyg'otadi, har birimizga Vatan manfaatlarini himoya qilishni o'rgatadi.
A+E+A+T1+A+T2+K/A+E1+A+E2+E3+H+T+K	Bu intilish tarixiy an'analar va boy ma'naviyatga asoslangan, mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab-yashnashi har jihatdan shunga bog'liq.
A+T+H+K/E+A+T+T+K	Ushbu maslahatlarimizni diqqat bilan o'qing, ular o'rganilayotgan mavzuni eslab qolishingizga yordam beradi.
E+K/T+A1+T.b+A2+E+K	Vayronalar unsiz, ularni sho'r va yovvoyi o'tlar bosgan.
A+A+E+H+K/H+H+H+H+H+K	Cholning yolvorib chekayotgan faryodi anchagacha eshilib turdi, keyin bora-bora pasayib, oxiri umuman o'chdi.
E+A+T1+T.b+T2+T+K/A+A+T+K	Odamlar uchi o'tkirlangan tosh va tayoq bilan hayvonlarni ovlashgan, o'simliklarning iste'molga yaroqli ildizmevalarini kovlab olishgan.
E+K/E+K	Sher o'zini yo'qotib qo'ydi, ko'zlari olakula bo'la boshladi.
A+H+E+K/A+E+A+H+T1+T.b+A+T+T2+K	Mezolit davri boshlanishi bilan muzlik davri poyoniga yetdi, bu narsa iqlim ancha

	ilishiga va odamlar turmushida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.
K/H+A+E+K	Qarang, osmonda minglab yulduzlar charaqlaydi.
H+A+E+K/A+T+A+E+K	O'rta Osiyo janubida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik vujudga keldi, xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurila boshladi.
H+H+E+A+T+K/E1+E2+E3+E4+T.b+E5+A+K	Temir asri boshlarida O'rta Osiyoda aholi turli guruhlariga bo'lingi: kohinlar, jangchilar, chorvadorlar, dehqonlar va hunarmandlar shular jumlasidandir.
H+A+E+A+T+K/H+E+A+A+T+K	Ko'p yillar mobaynida “nom”lar hukmdorlari o'z mol-mulkini ko'paytirib oldi, natijada Misr mustaqil davlatlarga aylangan alohida “nom”larga parchalanib ketdi.
A+H+E+K/A+E+H+T+K	Qadimgi podsholik davrida Sinay yarimoroli bosib olinadi, mahalliy qabilalar Misrga soliq to'lay boshlaydi.
E+H1+T.b+H2+H+T+K/T1+T2+T.b+A+T3+K	Fir'avnlar Nubiya va Liviyaga ham yurish qilib, shaharlarni taladi, asirlar, chorva mollari va boshqa boyliklarni egallab oldi.
H+E+A+A+T+K/E+T+T+K	Bu vaqtda podsholik ko'plab mayda “nom”larga bo'linib ketgandi, ular giksoslarga soliq to'lar edi.
A+T+T+A+E+A+A+T+K/A+A+H+A+E+K	Itoatsiz hukmdorlarni o'ziga bo'ysundirgan Yaxmos yangi fir'avnlar sulolasi asoschisiga aylandi, ana shu fir'avn zamonidan Yangi podsholik davri boshlandi.
H+E+A+A+T+K/A+T1+T.b+T2+E+K	Mil. avv. VII asrda Misr yana yagona davlatga birlashdi, mamlakat iqtisodiyoti va madaniyatida yuksalish boshlandi.
T+A+E+A+A+K/E+A+T1+T.b+T2+K	Husnixat san'atini egallagan kishilar yuksak savodxon kishilar sanalgan, ular katta imtiyozlarga va izzat-hurmatga ega bo'lgan.
A+A+E+H+A+K/A+A+T+T+K	Taniqli fransuz olimi Jak Fransua Shampolyon 1822-yilda jahonshumul

	ahamiyatga molik kashfiyot qildi: qadimiy Misr matnlarini o'qishga muvaffaq bo'ldi.
H+A+A+E+K/E+T+K	Qo'llar uzunligi turlicha bo'lgani sababli “podsho tirsagi” degan yagona o'lchov joriy etilgan, u 52,5 santimetrga teng bo'lgan.

Tuzilgan modellar bir qator ilmiy va amaliy vazifalarni bajaradi. Xususan, o'zbek tilida qo'shma gaplar sintaksisini formal tasvirlash, dependency parsing tizimlari uchun sintaktik andozalar yaratish, avtomatik matn tahlili va mashinaviy tarjima jarayonlarini takomillashtirish, o'zbek tilining korpus lingvistikasi uchun shablonlar ishlab chiqish asosiy o'rin egallaydi. Ayniqsa, modellarni formal belgilar asosida kodlash ularni kompyuter lingvistikasi, xususan, dependency parser yaratish jarayonida qo'llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sayfullayeva R. *Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplarning shakl-vazifaviy (formal-funksional) talqini*: filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1993.
2. Turniyozov B. N. Hozirgi o'zbek tilida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2008.
3. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. [Масъул муҳаррирлар: Ғ.А.Абдурахмонов ва бошқ.]. – Т., Фан, 1976. – 560 б.; Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
4. Қурбонова М, Сайфуллаева Р., Боқиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. – Тошкент, 2004.